



1991-yildan  
chiqa boshlagan

2021-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyoti@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyoti@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyoti@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyoti@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyoti@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN TAVALLUDINING 222 YILLIGI



BÜLBUL VA GUL

Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,  
G'arib bulbul fig'on aylab, "Gulim, rahm aylagil", derdi.  
Biroq ul gut qulq solmas edi faryod-u afg'ona,  
Faqat orom olardi noladin tolg'ona-tolg'ona.

Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham  
Yonarsan, o'rtanarsan, yod etarsan tinmayin bir dam.  
Qo'y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,  
Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodingga yetmaydi.

Cho'lpox tarjimasi

## Ushbu sonda

-  Metodik tavsija  
3-bet  
Onlays to'garak mashg'ulotlarni  
tashkil etishda masofaviy didaktik  
o'yinlarning afzalliklari
-  Dolzarb mavzu  
6-bet  
Prinsipning o'zbekchasi – tutum,  
tamoyil emas!
-  Ilg'or pedagogik texnologiyalar  
9-bet  
Adabiyot darslarida o'quvchilarining  
tahsil qila olish ko'nikmasini  
shakllantirish
-  Tadqiqotlar  
26-bet  
Linguoculturological approach to  
teaching a language
-  Методика. Опыт  
65-bet  
Развитие лингвистической  
компетенции студентов-филологов при  
изучении темы  
«Ташкент – столица нашей Родины»
-  Литературоведение  
84-bet  
Музыка и ее роль в творчестве Гоголя



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxaiga olingan.  
2021-yil. 6-son.

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Qozoqboy YO'LDSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdulrahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinnbosari)

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Nashr uchun mas'ullar:**

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi  
32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilan magolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualiflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muholehzalar bo'silishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxoniga 2021 17.06 da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Sharhti bosma tabog'i 6,0 "Times" garniturası. 10, 11 kegl. "PRESS-PRINT" bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent vil., Yuqori Chirchiq tum., Yik-ota, Oqibat ko'chasi 50-uy. Buyurtma Adadi 4930 nusxa Bahosi kelishigian narida.

**TIL VA ADABIYOT****TA'LIMI**

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ

**Language and Literature  
Teaching**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**TIL VA ADABIYOT****TA'LIMI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

**Я ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**  
**LANGUAGE AND LITERATURE**  
**TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**MUNDARIJA****METODIK TAVSIYA**

Dildora AZIMOVA. Adabiyotshunosligimiz faylasuflari yoshida.....	2
Dildor NURMUHAMEDOVA. Onlayn to'garak mashg'ulotlarni tashkili etishda masofaviy didaktik o'yinlarning afzalligidari .....	3
Konisbay YUSUPOV. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyoti bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar .....	5

**DOLZARB MAVZU**

Baxtiyor DANIYAROV. Prinsiplarning o'zbekchasi - tutum, tamoyil emas! .....	6
---	---

**ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR**

Shahnoza SHARIPOVA. Adabiyot darslarida o'quvchilarning tahsil qila olish ko'nikmasini shakllantirish .....	9
Umida MADAMINOVA. Effective assessment techniques for online teaching .....	10

**TADQIQOTLAR**

Feruza TAIROVA. Tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik vaziyat .....	12
Amirulla ABDULLAYEV. Harakat tarzi ma'sinosini ifodalovchi leksemalarning leksikografik talqini .....	13
Dildora TO'RAYEVA. O'zbek tilidagi shaxsiy yo'zishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning lingvistik ekspertizasi .....	17
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda yanga, oqsoqlar, buva va mifologik obrazlarning qo'llanilishi .....	19
Ma'rifat SHUKUROVA, Ra'no YULDASHEVA. O'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish .....	21
Kamila XASANOVA. Ilmiy olamda lingvomadaniyatshunoslikning o'mni .....	23
Nomoz QOBILOV. Tagma'no - semantik ma'no ifodalovchi vosita sifatida .....	24
Gulchekhra KHAZRATOVA. Linguocultural approach to teaching a language .....	26
Faxriniso LUTFILLOYEVA. Yapon tili iyerogliflarini mnemotexnika asosida onlayn o'qitish usuli .....	28

**TAHLIL**

Xolmo'min FAYZULLAYEV. Adabiyotda inson va tabiat muammosi: tadrij, sintez, takomil .....	30
Aymixan ESHNIYAZOVA. Ijodkor badily-estetik konsepsiyasida adabiy ta'sir masalasi .....	34

**TARJIMASHUNOSLIK**

Abdurusul BULTAKOV, Shuhrat TASHPULATOV. Nemis va o'zbek tillarida satira, hajviya va yumorning lingvomadaniy xususiyatlari .....	35
Barno BO'RONOVA. Badily tarjimada nom tushunchasidagi anqlik mezonlari .....	37
Muqaddas OQMAMATOVA. Lirik matn va milliy-madaniy frazeologizm .....	38
Nigina KODIROVA. Linguocultural aspects of colour simile translation .....	40

**KICHIK TADQIQOTLAR**

Safa MATJON, Inobat MADRAHIMOVA. Normurod Norqobilovning animistik asarlari milliyilik .....	42
Baxtiyor XOLMUXAMEDOV. Leksemalashuv hodisasi - o'zbek tilining boyib borishidagi asosiy omillardan biri .....	43
Mahbuba ISMONALIYEVA. Polvon obrazi vositasida xalqona tasvirlar va ma'naviy qadriyatlar ifodasi .....	44
Surayyo MUQIMOVA. Iskandar devori - muhofaza devori .....	46
Tursingul OTAROVA. Tenelhay Sarsonbayevning badily so'z qo'llashi mahorati .....	47
Muyassar IBROHIMOVA. Gadorli ijodda dunyo obrazi talqini .....	49
Navruz MADALOV. Using types of non-traditional lectures to improve language skills in adult students .....	50
Dilshod XURSANDOV. Poetik g'oya va shoir ideali .....	51
Nilufar KADIROVA. Kitobxon javobi - o'quvchi faoliigining muhim omili .....	53
Boburjon BOYMATOV. Kinoqissa - adabiyot farzandi .....	55
Sharofiddin JALLIYOV. "Devoni Jalliy"ning matnli xususiyatlari .....	57
Davronbek QURBONOV. Chegaralangan qatani so'zlarining lingvomadanly va lingvopoetic xususiyatlari .....	58
Abdurayim TURSUNOV. Baxshichilik san'ati fidoyisi .....	59
Khilola BAKIROVA. The role of foreign language of specialty in the development of professional competence of the future ESP specialist .....	61

**QOSHIMCHA MATERIAJ**

Shakhlo BOTIROVA. The principle of social partnership in teaching an innovative cluster of teacher education .....	62
--	----

Nigora SHARIPOVA. "Hayrat ul-abror" hikoyatlarining doston kompozitsiyasida tutgan o'mni .....	64
--	----

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Safo MATJON,

pedagogika fanlari doktori, professor;

Inobat MADRAHIMOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

## NORMUROD NORQOBILOVNING ANIMISTIK ASARLARIDA MILLIYLIK

Normurod Norqobilov butun ijodi davomida inson va tabiat munosabatlarini, xususan, hayvonot va nabotot olamining sirli-sehrli dunyosini kitobxonning bir qarashda faromush tuyg'ulariga turki beruvchi ruhshunos sifatida o'zi ko'z ochgan dunyoni anglashga ishtiyogi baland o'smirlarning har narsaga qiziquvchan nigo-hi orqali tasvir markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi. Kichik kitobxon qalbiga, birinchi navbatda, uning hissiy kechinmalari vositasida kirib borilishini nazarda tutgan yozuvchi "Ovul oralagan bo'ri" nomli qissalardan tashkil topgan to'plamidagi tanishtiruv xati (annotatsiya) da bu boradagi o'z qarashlari xususida quyidagilarni qayd etadi: "Agarda insonda tuyg'u bo'lmasa, quyosh haroratsiz, tabiat rangsiz, tirklik esa ruhsizlik kasb etadi. Ruhsizlik esa kishi tabiatini zanglatadi. Zanglagan ko'ngil illatga moyil bo'ladi. U dunyoga nafs ko'zi bilan qaraydi, oddiy insoniy munosabatlarda riyokorlik yo'lini tutarkan, hamisha jaholatdan oziqlanadi".

Bizningcha, adib nafaqat "Ovul oralagan bo'ri" turkum qissalarida, balki katta-kichik barcha asarlari da ham mazkur mulohazalari asosida qalam suradi. Buning sababi ijodkorning dunyoga kelib ko'z ochgan ilk damlaridan boshlab ona zaminga mehr-muhabbat qo'yanidan bo'lsa ajab emas.

Normurod Norqobilov tabiatni shunchaki tasvirlamaydi, balki har bir maysa-giyoh, dov-daraxt, jonivorni ko'pdan kuzatib yurgandek, o'zining eng yaqin tanishidek, mehr tuyg'usi bilan qalamga oladi. Ularga bo'lgan iliq munosabatini "Qoraquyun", "Qo'shnilar", "Quyosh utilgan kun", "Bo'ron qopgan kun", "Paxmoq", "Tog'-u toshlarda", "Dashtda", "Tog' odami" va hokazo asarlari sarlavhasigacha chiqaradi. Shuning uchun ham yozuvchi asarlarini mutolaa qilganimizda dasht-u dalalar, tog'-u toshlarning jozibali sehrini his qilamiz, o't-o'lalnarning hidini sezamiz, turli jonivorlar bilan beixtiyor muloqotga kirishamiz. Uning asarlarida ko'rib, bilib yurganimiz – xoh yovvoyi, xoh uy hayvonlari yoxud turli-tuman jonivorlar bo'lsin, ular timsolida shu paytgacha e'tibor bermagan, balki bilmagan xislatalardan xabar topamiz. E'tiborli shundaki, Normurod Norqobilov qalamiga mansub asarlardagi jonzotlar ularning jahon adabiyotida uchraydigan jinsdoshlaridan tasvirning milliyligiga ko'ra farq qiladi. Bu ulardagi ona zamin va undagi jonzotlarga bolaligidan mehr qo'ygani tufayli bo'lsa ajab emas. Adib asarlardagi "Yovqur" ("Ajal chorlagan kun"), Bo'ynoq, Qoramanglay ("Dasht-u dalalarda"), Oqquyruq ("Adadsiz azob"), Oqylol, Cho'ngkalla, Uzuntumshuq ("Ovul oralagan bo'ri") kabi jonivorlar timsolida ayni holat ko'zga yorqin tashlanib turadi. Qizilqiya deb ataluvchi tog' darasida besh yildan beri yashab kelayotgan, qishloq ahli yarim chin, yarim hazil tarzda "qo'shnilar"

deb ataydigan bir juft bo'ri haqidagi "Qo'shnilar" hikoya si shu jihatdan e'tiborni tortadi. "Qo'shnilar"ning qishloq ahliga zarracha zarari tegmaydi. Shuning uchun ham hech kim ularga ola qaramaydi.

Hikoya qahramonlaridan Ko'kan azaldan hayvonot olamiga befarq emas. Ammo uning boshqa jonzotlarga bo'lgani kabi "qo'shni" bo'lib yashayotgan bo'rilarga mehri, qiziqishi qishloqqa boshqa bo'rilar hujum qilgandan keyin yana-da oshadi.

Yozuvchi asarlarini mutolaa qilar ekansiz, joni-vorlarning hayot tarzini astoydil o'rgangan ijodkorgina ularning ruhiyati ichiga ham kirib borishiga amin bo'lasiz.

Tog'ay Murod Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" nomli kitobiga yozgan so'zboshida adibning badiiy mahorati xususida so'z yuritar ekan, uning o'z asarlarida tabiatni "ziyrak animalist rassom, sinchi adib" sifatida tasvir markaziga qo'yishiga alohida e'tibor qaratgan edi. Bizningcha, bu fikrda N.Norqobilov ijodiga ham nisbat berilsa xato bo'lmaydi.

Yozuvchining talay asarlari sujetida bo'rilar timsoli muhim o'rin tutadi. Ammo ularning hech qaysisi ijodkorning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifasidan ke-lib chiqqan holda bir-birini takrorlamaydi. Binobarin, "Qo'shnilar" hikoyasining qahramonlari insonlarga bo'lgan vafodorligi-yu, sadoqati bilan hayratlanarli bo'lsa, "Paxmoq" qissasi qahramoni o'z dushmaniga shafqatsizligi bilan ajralib turadi.

"Paxmoq" qissasida muallit ayiqlar xarakterini ochishga ruhiy-psixologik jihatdan yondashgani bois qahramonlarning fe'l-atvori, xatti-harakati, o'zini tutishi zarracha shubha tug'dirmaydi, aksincha, ishonch va qiziqish uyg'otadi. Aslida parranda-yu darrandalarni otib kun ko'rib yurgan toshloqsoylik Panji sayoq "Paxmoq" laqabli ayiqni ovlashga qaror qiladi. Onasidan erta ayrligan Paxmoq har safar uplashidan oldin onasini sog'inib g'ingshib-g'ingshib qo'yadi. Hayot uni kichkinligidanoq yashash uchun kurashishga o'rgatadi. Oxir-oqibat u hayotga muhabbati tufayli o'zini himoya qilgan holda o'zi uchun ajal timsoli bo'lgan Panji sayoqni mahv etadi.

Qizig'i shundaki, aynan shu nuqtada yozuvchi insonlar bilan hayvonlar ruhiyatidagi mushtarak jihatlariga e'tibor qaratadi. Kitobxon asar bilan tanishar ekan, uning sujetida Panji sayoqning ham, Paxmoqning ham taqdiriga oid chizgilar bekorga kiritilmaganining guvohi bo'лади. Har ikkalasining qismati bir-biriga yaqin. Ayni shu yaqinlik kitobxon qiziqishini o'ziga jaib etadi. Qissa qahramonlarining har ikkalasi ham mehr ko'rmay katta bo'лади: ovchi bir ko'rishda qo'shni qishloqlik juvonni yoqtirib qoladi, Paxmoqda ham xuddi shunday holat. Qahramonlar ruhiyatidagi bunday yaqinlik aslida mu-

allifning ham ayni muddaosi bo'lib, hayotning yozilma-gan qonuniyatlari xususida o'ylab ko'rishga e'tibor qaratadi.

Inson va hayvonning tabiiy sezimlaridagi bunday uyg'unlik tasviri adibning, ona tabiat va undagi jonzotlar hayotini shunchaki o'rganmasdan uning ichiga chuqur krib borganidan dalolat beradi.

Zero, "Tabiat qo'yinda erkin yurgan biror parranda, hasharot, kemiruvchi yoki jonivor sabr-bardosh, mato-

nat, muhabbat va tabiiy qiziqish bilan kuzatilmas ekan, u haqidagi asar to'laqonli chiqmaydi. Ularning qiyofasi, anatomik tuzilishi, instinctga asoslanuvchi harakati, psixologik holatlari sun'iy, to'qima tasvirni qabul qilmaydi". Ona tabiat kuychisi Normurod Norqobilov butun ijodi davomida ana shu qarashlarga amal qilib kelishi bois milliy animalistikaning yorqin namunalarini yarata olgan ijodkordir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Norqobilov N. Ovul oralagan bo'ri. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Fayzullayev X. "Dasht-u dalalarda" romanida naturalistik tasvir qirralari // "Tafakkur ziyosi" ilmiy uslubiy jurnali, 2020-yil, 4-son. 131-bet.
3. Norqobilov N. Dasht-u dalalarda. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

Baxtiyor XOLMUXAMEDOV,

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

## LEKSEMALASHUV HODISASI – O'ZBEK TILINING BOYIB BORISHIDAGI ASOSIY OMILLARDAN BIRI

Leksemalashuv deganda birikma shaklidagi til birliklarining shakliy-ma'noviy yaxlit bitta lug'aviy birlikka aylanish jarayoni tushuniladi. Aksar lisoniy hodisalardan farqli o'laroq, leksemalashuv hodisasi nutqiy hodisadir. Chunki sintaktik birliklarning lug'aviy birlikka aylanish jarayoni – umumqo'llanishdagi birlikka o'tishi nutq bilan bog'liq. Sintaktik birliklar muayyan narsa-hodisa, belgi-xususiyat va harakat-holatning nomi sifatida aynan nutqda barqarorlashadi. Agar umumqo'llanish jarayonidan o'tmasa, hech qanday erkin birikma leksik birlikka aylanmaydi. Leksemalashuv jarayoniga aynan erkin birikmalarning tortilishi ham mazkur hodisaning nutqiy ekanligini asoslaydi. Leksemalashuvdan ma'lum muddat vaqt o'tishi bilan tilda aks jarayon ham yuz beradi, ya'ni nutq hodisasi til hodisasiga aylanib, leksemalashish tufayli paydo bo'lgan so'z va iboralar milliy til doirasida turg'unlashadi va me'yorlashadi: *tentakqush, tepakal, tog'olcha, tokqaychi* kabi.

Demak, leksemalashuv tufayli til materialining nutqdagi yangi imkoniyatlari ochilaveradi. Dastlab, lisoniy va nolisoniy tamoyillarga muvofiq keladigan sintaktik tuzilmalar, uning negizida esa yangi leksemalar paydo bo'ladi. Sintaktik birliklarning leksik birliklarga aylanishi bilan bog'liq holatda yuzaga kelgan yangi til birliklari esa tilning boyishi, uzlusiz rivojlanishi, ifoda imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi. Har bir tilga xos ayni universal jarayon leksemalashuv hodisasini faqat diaxronik jihatdan o'rganish lozim, degan qarashning yetarli asosga ega emasligini ko'rsatadi. Zotan, leksemalashuv mahsuli bo'lgan birliklar muayyan til lug'at tarkibini boyitishi uning sinxron holatida kuzatiladi, sinxron planda belgilanadi.

Leksemalashuv hodisasining yangi ma'nolar shakliyishiga sabab bo'lishi uning sof lingvistik xususiyati, lisoniy vazifasi bo'lsa, uning nutqiy jarayonda fikrni ix-

cham holda ifodalash uchun xizmat qilishi ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Buni Kim In Te quyidagicha asoslashga harakat qiladi: *Belbog'* so'zi yasalmaganda ushbu predmetni nomlash uchun *belga bog'lanadigan bog'ich/bog'lama; vatangado o'rnida vatanidan ayrligan kimsa; guldasta o'rnida gullarning to'plami/bog'لامi, ko'zoynak o'rnida ko'zga taqiladigan oynak tarzidagi birikmalarni qo'llashga to'g'ri kelishi mumkin edi*. Ko'rindiki, bu ifoda mazmuni nuqtayi nazaridan ham, ifoda shakli nuqtayi nazaridan ham anchagini g'alizdir.

Leksemalashuv jarayonining paydo bo'lishi tarixiy zaruriyat bo'lib, uning yuz berishi tilning amaldagi qonuniyatlariga to'la mos keladi. Bu mos kelish deganda biz fikrni yangicha tarzda ifoda etish usullarini hamda nutq jarayonidagi ixchamlilik va qisqalikka intilishni nazarda tutamiz.

Leksemalashuv nutqiy jarayon bilan bog'liq ekan, bu jarayonda yangi til birliklarining (bunda yangi ma'no anglatuvchi so'zlar – neologizmlar nazarda tutiladi) vujudga kelishida uning yaratuvchisi bo'lgan insonni ham e'tibordan tashqrarda qoldirib bo'lmaydi. Bu jarayonda uning individualligi va yaratuvchanligi sezilib turadi va birikma bir qator bosqichlarni bosib o'tadi. Dastlab, u me'yorlashuv jarayonini boshidan kechirishi lozim. Muomalaga kiritilgan birlik bilan til iste'molchilarini tanishadi. Uning ma'nosini anglashga intiladi, talaffuz tomoniga ham diqqat qilinadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiylashish jarayonidan o'tiladi. Shundan so'ng u ommalashadi, me'yorlashadi, til sohiblari tomonidan e'tirof etiladi va lug'at tarkibidan joy oladi. Keng ma'nda navbatdagi bosqich hisoblangan ana shu jarayonni ham leksemalashuv bilan bog'liq deyish mumkin.

Bu jarayonning faol ishtirokchilari milliy til himoyachilari va targ'ibotchilari, millatning ilg'or vakillari – ijodkor